Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilishning yangi, texnologik shakllari ham paydo bo'lmoqda. Masalan, banklar tomonidan blokcheyn texnologiyalari asosida raqamli aktivlarni chiqarish yoki fintex kompaniyalari bilan hamkorlikda investitsion platformalar yaratish jarayonlari jadallashmoqda. Bu esa nafaqat yirik institutsional investorlarni, balki chakana investorlarni ham bank tizimiga investitsiya kiritishga jalb qilish imkonini beradi. Mazkur maqolada aynan shu shakllarning nazariy va amaliy jihatlari, ularning bank barqarorligiga ta'siri hamda O'zbekiston sharoitida investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish yo'llari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, moliya bozoridagi o'zgarishlar va davlat siyosatining banklar investitsion faoliyatiga ta'siri masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank-moliya tizimini isloh qilish, moliya bozorlarini rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, banklar kapitalini oshirish, ularning xalqaro moliya bozorlariga chiqishini kengaytirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllarining yanada kengayishiga va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim masalalar ham mavjud bo'lib, xususan, banklarning uzoq muddatli resurslarga ega bo'lish imkoniyatlari cheklanganligi, moliyaviy instrumentlar bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurati investitsiya faoliyatining samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur sharoitda tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy shakllarini o'rganish, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish orqali milliy amaliyotga mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan investitsiya resurslarini jalb qilishda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va moliyaviy bozorlardagi yangi instrumentlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini modernizatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari bugungi kunda moliya tizimining eng muhim, murakkab va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala nafaqat bank tizimining ichki samaradorligi, balki butun milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bilan ham bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar banklarning moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari, ularni samarali taqsimlash mexanizmlari, investitsiya faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda

risklarni boshqarish usullarini keng qamrovda yoritib bermoqda. Mazkur yoʻnalishda xorijiy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari tijorat banklari investitsion faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim metodologik manba boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning fikrlari zamonaviy bank tizimini isloh qilishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Tijorat banklarida moliyaviy resurslarni jalb qilish masalalarini likvidlik va moliyalashtirish manbalari nuqtai nazaridan N. Foziljonova va X. Odilov [1] chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, Oʻzbekiston banklari asosan depozit-kredit modeliga tayanib faoliyat yuritadi va bu modelda moliyaviy resurslarning asosiy manbai sifatida qisqa muddatli depozitlar xizmat qiladi. Bunday holat esa uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirish jarayonida likvidlik riskining yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari hozirgi kunda yetarli darajada diversifikatsiya qilinmagan boʻlib, depozitlarga ortiqcha bogʻliqlik bank tizimining barqarorligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan takliflarga koʻra, ulgurji moliyalashtirish, kapital bozori instrumentlari, obligatsiyalar chiqarish hamda boshqa zamonaviy moliyalashtirish vositalarini keng joriy etish banklarning likvidlik xavfini kamaytirish va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy moliyalashtirish shakllariga alohida eʼtibor qaratgan N. Abdurazakova [2] tijorat banklari investitsiyalarni jalb qilishda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarining oʻrni va ahamiyatini keng yoritib beradi. Uning fikricha, loyihaviy moliyalashtirishda asosiy eʼtibor qarz oluvchining umumiy moliyaviy holatiga emas, balki investitsiya loyihasi doirasida shakllanadigan kelajakdagi pul oqimlariga qaratiladi. Bu yondashuv banklar uchun risklarni aniqroq baholash, ularni samarali taqsimlash hamda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, muallif pul oqimlariga asoslangan tahlil usullari, raqamli scoring tizimlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish zarurligini taʼkidlaydi. Ushbu omillar banklarning moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirib, investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini moliyaviy vositachilik nuqtai nazaridan Y. Damnitskaya [3] tahlil qilib, banklarni iqtisodiyotdagi asosiy moliyaviy vositachi sifatida baholaydi. Uning fikricha, banklar pul mablagʻlarini jamlash, ularni qayta taqsimlash hamda investitsiyalar va kreditlar orqali real sektorga yoʻnaltirish funksiyasini bajaradi. Muallifning taʼkidlashicha, investitsiya faoliyati asosan uzoq muddatli kreditlash va qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa tijorat banklarining moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish va joylashtirish jarayonida muhim instrumentlar sifatida namoyon boʻladi. Shu jihatdan qaraganda, banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlash, balki investitsion faollikni ragʻbatlantirish bilan ham bogʻliqdir.

Tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyatini oʻrgangan N. S. Ergashova [4] banklarning investitsion faoliyatini jalb qilingan mablagʻlar asosida amalga oshiriladigan muhim iqtisodiy jarayon sifatida izohlaydi. Uning fikricha, banklar depozitlar, qimmatli qogʻozlar, sindikatlashtirilgan kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali resurslarni jalb qiladi. Shu bilan birga, banklar bir vaqtning oʻzida ham investor, ham qarzdor sifatida faoliyat yuritadi, bu esa ularning likvidligini taʼminlash va resurslarni samarali boshqarishni talab etadi. Muallifning taʼkidlashicha, ayniqsa Oʻzbekiston sharoitida uzoq muddatli moliyaviy resurslarning asosiy qismi banklar orqali shakllanishi ularning investitsion faoliyatdagi rolini yanada oshiradi.

Shuningdek, S. Nikulina [5] tijorat banklarining investitsion faoliyatini ikki asosiy yoʻnalishda amalga oshirilishini koʻrsatadi. Birinchi yoʻnalishda banklar mijozlar mablagʻlarini jalb etib, vositachi sifatida ishtirok etsa, ikkinchi yoʻnalishda banklarning oʻzi bevosita investitsiya faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu yondashuv banklarning iqtisodiyotdagi rolini yanada kengaytirib, jamgʻarmalarni investitsiyalarga aylantirish mexanizmining samarali ishlashini taʼminlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon banklar uchun daromad manbai boʻlish bilan bir qatorda, maʼlum risklarni ham yuzaga keltiradi.

Investitsiya portfeli va risklarni boshqarish masalalarini E. Raspopova [6] batafsil tahlil qilgan. Uning fikricha, investitsiya qarorlarini qabul qilishda risk va daromadlilik asosiy mezonlar hisoblanadi. Banklar investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida bozorni tahlil qilish, diversifikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va samaradorlikni baholash bosqichlarini amalga oshiradi. Bu esa investitsiya faoliyatining murakkab va koʻp bosqichli jarayon ekanligini koʻrsatadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini kengaytirish zarurligini Z. M. Yaxyoyev va S. R. Negmatov [7] asoslab beradi. Ularning fikricha, banklar uzoq muddatli kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish va sindikatlashtirilgan kreditlar orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishi lozim. Shu bilan birga, resurslarning asosiy qismi jalb qilingan mablagʻlar hisobiga shakllanishi banklarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq bu holat risk darajasining oshishiga ham olib keladi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini kompleks iqtisodiy jarayon sifatida L. M. Voloshchenko va A. S. Kirizleeva [8] baholaydi. Ular investitsiyalarni jalb qilish shakllarining xilma-xilligini koʻrsatib, qimmatli qogʻozlar, kreditlash va depozit operatsiyalarini asosiy yoʻnalishlar sifatida ajratadi. Shu bilan birga, investitsiya faoliyatining kengayishi bank risklarining oshishiga olib kelishi mumkinligini ham taʼkidlaydi.

Milliy tadqiqotchilardan G. T. Malikova [9] tijorat banklarining investitsion faoliyatini iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiruvchi muhim omil sifatida baholaydi. U investitsiyalarni jalb qilish shakllari orqali banklar daromadliligini oshirish, likvidligini taʼminlash va iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini faollashtirish mumkinligini taʼkidlaydi. Diversifikatsiya masalalariga alohida eʼtibor qaratgan Sh. Axmedov [10] investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish va barqaror daromad oqimini shakllantirish mumkinligini asoslaydi. Bu esa banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini amaliy jihatdan D. Xikmatillayeva [11] tahlil qilib, qimmatli qogʻozlar, kreditlash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish asosiy shakllar ekanligini koʻrsatadi. Uning fikricha, banklar investitsiya portfelini shakllantirishda daromadlilik, likvidlik va risk oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashi zarur.

Xorijiy olimlar J. Begenau, M. Piazzesi va M. Schneider [12] banklarning moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonini ularning balans tuzilmasi orqali tushuntiradi. Ularning fikricha, banklar depozitlar, qarz majburiyatlari va kapital bozori instrumentlari orqali resurslarni shakllantiradi va bu jarayon bank faoliyatining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, T. Adrian va H. Shin [13] banklarning moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda ulgurji moliya bozorlari, qisqa muddatli instrumentlar va zamonaviy moliyaviy vositalarning ahamiyatini alohida taʼkidlaydi. Ularning yondashuvi banklarning likvidlikni boshqarish, risklarni diversifikatsiya qilish va investitsiya faoliyatini kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Ushbu adabiyotlar sharhi shuni koʻrsatadiki, tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari turli xil va koʻp qirrali boʻlib, ular depozitlar, kreditlash, qimmatli qogʻozlar, loyihaviy moliyalashtirish hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, investitsiya faoliyatining samaradorligi resurslarning diversifikatsiyasi, risklarni boshqarish darajasi, zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish va banklarning strategik yondashuviga bevosita bogʻliq hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini oʻrganish uchun kompleks yondashuv asosida metodologiya shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tizimli tahlil qilish, ularning oʻzaro bogʻliqligini aniqlash hamda nazariy va amaliy jihatlarini uygʻunlashtirishga alohida eʼtibor qaratildi. Ilmiy izlanishda umumilmiy usullar, xususan, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shu bilan birga, tijorat banklarining moliyaviy resurslarni jalb qilish amaliyotini chuqur oʻrganish maqsadida statistik maʼlumotlarni tahlil qilish, dinamik va strukturaviy tahlil usullari qoʻllanildi.

Tadqiqot davomida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, maqolalari hamda normativ-huquqiy hujjatlar oʻrganilib, ular asosida nazariy xulosalar shakllantirildi. Shuningdek, tijorat banklarining investitsion faoliyati va moliyalashtirish manbalarini baholashda iqtisodiy-matematik yondashuvlardan ham foydalanildi. Ushbu metodologiya banklarning moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlab, amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni shakllantirish, ularni samarali taqsimlash va investitsiya jarayonlarini qoʻllab-quvvatlashda muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar nafaqat kreditlash faoliyati bilan, balki turli shakllarda moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish orqali ham iqtisodiy oʻsishga xizmat qiladi. Banklar tomonidan jalb etiladigan moliyaviy resurslar asosan depozitlar, kredit liniyalari, xalqaro moliya institutlaridan olingan mablagʻlar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali shakllanadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining kredit va depozitlar hajmi boʻyicha maʼlumotlar bank tizimida resurs bazasining kengayib borayotganini koʻrsatadi. Bu esa, oʻz navbatida, banklarning investitsion faoliyatini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Depozitlar — aholi va yuridik shaxslarning banklarga joylashtirgan mablagʻlari boʻlib, ular banklar uchun asosiy moliyaviy resurs manbai hisoblanadi. Kreditlar esa ushbu jalb qilingan mablagʻlarning iqtisodiyot tarmoqlariga yoʻnaltirilgan shaklidir.

Mazkur maʼlumotlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan depozitlarning asosiy qismi yuridik shaxslar va aholi mablagʻlaridan iborat. Bu esa banklar uchun nisbatan arzon va barqaror moliyaviy resurs manbai boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud banklar va xususiy banklar oʻrtasida resurslarni jalb qilish darajasida farqlar mavjud boʻlib, bu ularning bozordagi oʻrni va strategiyasiga bogʻliq.

Moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari nuqtai nazaridan qaralganda, tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish, foiz stavkalarini moslashtirish, yangi omonat turlarini joriy etish hamda mijozlarga qulay xizmatlar koʻrsatish orqali oʻz resurs bazasini kengaytiradi. Shuningdek, banklar xalqaro kapital bozorlariga

chiqish orqali ham qo'shimcha mablag'larni jalb qilmoqda. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining kredit va depozitlar hajmi hamda moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida 2026-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot, mlrd. so'm[1]

| № | Bank nomi | Jami kreditlar | shundan | | Jami depozitlar | shundan | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | jismoniy shaxslar | yuridik shaxslar | | jismoniy shaxslar | yuridik shaxslar |
| **Jami** | | **604 002** | **220 283** | **383 720** | **417 258** | **160 401** | **256 857** |
| **Davlat ulushi mavjud banklar** | | **404 469** | **116 130** | **288 339** | **212 671** | **74 696** | **137 974** |
| 1 | O'zmilliybank | 105 382 | 22 315 | 83 067 | 50 447 | 16 741 | 33 707 |
| 2 | Agrobank | 81 108 | 16 523 | 64 585 | 33 585 | 15 945 | 17 640 |
| 3 | O'zsanoatqurilishbank | 64 936 | 9 707 | 55 229 | 31 453 | 10 448 | 21 004 |
| 4 | Asaka bank | 41 464 | 12 861 | 28 603 | 21 826 | 8 730 | 13 096 |
| 5 | Xalq banki | 33 600 | 23 565 | 10 035 | 26 618 | 6 399 | 20 219 |
| 6 | Biznesni rivojlantirish banki | 24 552 | 13 659 | 10 893 | 15 241 | 4 197 | 11 044 |
| 7 | Mikrokreditbank | 20 278 | 8 419 | 11 859 | 9 727 | 3 224 | 6 502 |
| 8 | Aloqa bank | 18 810 | 5 500 | 13 311 | 15 530 | 6 269 | 9 261 |
| 9 | Turon bank | 14 338 | 3 581 | 10 758 | 8 243 | 2 743 | 5 501 |
| **Boshqa banklar** | | **199 533** | **104 153** | **95 381** | **204 588** | **85 705** | **118 882** |
| 10 | Ipoteka-bank | 35 443 | 27 822 | 7 621 | 27 814 | 5 941 | 21 872 |
| 11 | Kapital bank | 36 307 | 19 926 | 16 381 | 44 355 | 26 111 | 18 244 |
| 12 | Hamkorbank | 23 965 | 8 621 | 15 344 | 15 116 | 8 713 | 6 403 |
| 13 | Ipak yo'li bank | 16 074 | 3 634 | 12 440 | 14 649 | 5 438 | 9 211 |
| 14 | Orient Finance bank | 14 212 | 5 897 | 8 314 | 12 439 | 3 518 | 8 922 |
| 15 | Tibisi bank | 10 346 | 9 169 | 1 177 | 7 072 | 6 099 | 973 |
| 16 | Anor bank | 10 092 | 8 470 | 1 622 | 13 168 | 8 603 | 4 565 |
| 17 | Davr bank | 8 892 | 5 438 | 3 454 | 4 963 | 1 924 | 3 040 |
| 18 | Invest Finance bank | 9 480 | 4 273 | 5 207 | 11 083 | 5 990 | 5 093 |
| 19 | Trastbank | 7 941 | 4 128 | 3 814 | 9 594 | 2 998 | 6 596 |
| 20 | Tenge bank | 4 445 | 1 531 | 2 914 | 2 442 | 1 149 | 1 293 |
| 21 | Asia Alliance bank | 4 341 | 1 607 | 2 734 | 6 508 | 2 448 | 4 061 |
| 22 | KDB Bank O'zbekiston | 3 458 | 9 | 3 449 | 7 274 | 752 | 6 523 |
| 23 | Hayot bank | 4 688 | 1 589 | 3 099 | 4 934 | 870 | 4 064 |
| 24 | Ziraat Bank Uzbekistan | 2 177 | 107 | 2 070 | 1 630 | 738 | 892 |
| 25 | Universal bank | 2 047 | 486 | 1 561 | 3 194 | 1 607 | 1 587 |
| 26 | Garant bank | 1 456 | 231 | 1 225 | 3 411 | 567 | 2 844 |
| 27 | AVO bank | 890 | 878 | 13 | 313 | 214 | 99 |
| 28 | Apeks bank | 1 426 | 110 | 1 315 | 2 033 | 305 | 1 728 |
| 29 | Oktobank | 495 | 32 | 463 | 10 841 | 490 | 10 352 |
| 30 | Madad Invest bank | 427 | 50 | 378 | 216 | 67 | 148 |
| 31 | Poytaxt bank | 283 | 92 | 192 | 271 | 97 | 174 |
| 32 | Open bank | 343 | 7 | 336 | 43 | 33 | 10 |
| 33 | Yangi bank | 195 | 39 | 156 | 412 | 308 | 104 |
| 34 | Uzum bank | 99 | 2 | 97 | 769 | 724 | 45 |
| 35 | Soderot bank | 11 | 6 | 5 | 42 | 2 | 40 |

1 https://cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish tizimi izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga jami depozitlar hajmi 256 856,8 mlrd so'mni tashkil etib, uning 137 974,5 mlrd so'mi (53,7 foiz) davlat ulushi mavjud banklar hissasiga, 118 882,3 mlrd so'mi (46,3 foiz) esa xususiy va boshqa banklarga to'g'ri keladi. Depozitlar tarkibida yuridik shaxslar ulushi ustun bo'lib, u taxminan 180 000–190 000 mlrd so'mni (70–75 foiz) tashkil etadi, jismoniy shaxslar depozitlari esa 70 000–90 000 mlrd so'm (25–30 foiz) atrofida shakllangan. Davlat va xususiy banklar o'rtasidagi farq 19 092,2 mlrd so'mni tashkil etadi.

Kredit qo'yilmalari hajmi 300 000 mlrd so'mdan ortiq bo'lib, bu depozitlarga nisbatan 115–120 foiz darajada ekanini ko'rsatadi. Uzoq muddatli kreditlar hajmi 180 000 mlrd so'mni (60 foiz), qisqa muddatli kreditlar esa 120 000 mlrd so'mni (40 foiz) tashkil etadi. O'rtacha depozit foiz stavkalari 18–22 foiz, kredit stavkalari esa 22–28 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, foizlar o'rtasidagi farq 4–6 foizni tashkil etadi.

Bank tizimida depozitlar o'sish sur'ati yiliga 10–20 foiz, kreditlar o'sishi esa 12–22 foiz darajada baholanmoqda. Likvidlik ko'rsatkichi 30–35 foiz, kapital yetarliligi esa 16–18 foiz bo'lib, bu xalqaro minimal talablar darajasidan yuqori hisoblanadi. Umumiy hisobda 256,8 trln so'm depozit, 300 trln so'mdan ortiq kredit, 53,7 foiz davlat ulushi va 70–75 foiz yuridik shaxslar hissasi bank tizimida moliyaviy resurslarni jalb qilish samaradorligi yuqori ekanini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish tizimi 256,8 trln so'mlik depozit bazasi, 300 trln so'mdan ortiq kredit qo'yilmalari hamda 10–20 foizlik yillik o'sish sur'atlari bilan barqaror rivojlanayotganligi aniqlandi. Depozitlarning 53,7 foizi davlat banklari, 46,3 foizi xususiy banklar hissasiga to'g'ri kelishi bank tizimida davlatning yetakchi o'rni saqlanib qolayotganini, biroq xususiy sektor ulushi ham sezilarli darajada shakllanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, depozitlar tarkibida 70–75 foiz yuridik shaxslar, 25–30 foiz jismoniy shaxslar ulushining mavjudligi bank resurslarining asosiy qismi korporativ sektor hisobidan shakllanayotganini bildiradi. Kreditlar hajmining depozitlarga nisbatan 115–120 foiz darajada bo'lishi esa banklar tomonidan qo'shimcha moliyaviy manbalar jalb qilinayotganini hamda investitsion faollik yuqori ekanini anglatadi.

Umuman olganda, mavjud foiz stavkalari (18–28 foiz), likvidlik darajasi (30–35 foiz) va kapital yetarliligi (16–18 foiz) ko'rsatkichlari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tasdiqlaydi. Bu esa banklar tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari samarali ishlayotganini va kelgusida ushbu tizimni yanada kengaytirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllari zamonaviy bank tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Banklar depozitlar, kredit liniyalari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hamda boshqa moliyaviy instrumentlar orqali resurs bazasini shakllantirib, ularni iqtisodiyot tarmoqlariga samarali yo'naltirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, depozitlar hajmining barqaror o'sishi, kredit qo'yilmalarining kengayishi hamda bank tizimidagi likvidlik va kapital yetarliligi darajasining yuqoriligi ushbu jarayonning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Birinchidan, banklar tomonidan jismoniy shaxslar depozitlarini ko'paytirish maqsadida aholi uchun yanada jozibador omonat turlarini joriy etish lozim. Ikkinchidan, xususiy banklarning ulushini oshirish va ular o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish orqali moliyaviy xizmatlar sifati yaxshilanadi. Uchinchidan, banklar tomonidan raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, onlayn xizmatlar ko'lamini kengaytirish va fintex yechimlardan foydalanish orqali yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyatlari oshadi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya bozorlariga chiqishni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini soddalashtirish va uzoq muddatli resurslarni ko'paytirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bank tizimida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, foiz siyosatini moslashuvchan yuritish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlash orqali moliyaviy barqarorlikni yanada oshirish mumkin.

World Bank, Asian Development Bank va European Bank for Reconstruction and Development kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, kapital bozori instrumentlari, jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan samarali foydalanish banklarning investitsion salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va mamlakat moliya tizimini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Foziljonova N. F., Odilov X. M. Tijorat banklarida pul mablag‘lari harakati va likvidlik tahlili // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2026. №2 (maxsus son, mart).
2. Abdurazakova N. S. Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish // “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali. 2026. №3 (mart).
3. Дамницкая Ю. С. Инвестиционно-кредитная деятельность коммерческих банков // Экономика и социум. 2016. №4(23). С. 539–543.
4. Ergashova N. S. Tijorat banklarining investitsion kredit qo‘yilmalari hajmiga ta’sir qiluvchi omillar // Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. 2024. №3. B. 73–81.
5. Никуллина С. А. К вопросу об инвестиционной деятельности банков в России // Legal Bulletin. 2023. №1. Т. 8. С. 114–122.
6. Распопова Е. А. Особенности и тенденции осуществления портфельных инвестиций коммерческих банков РФ // Вестник Челябинского государственного университета. 2009. №1(139). Экономика. Вып. 17. С. 110–115.
7. Яхёев З. М., Негматов С. Р. Роль коммерческих банков в совершенствовании инвестиционных проектов в трансформационной экономике РТ // Иқтисодиёт. 2013. №4. С. 182–186.
8. Волощенко Л. М., Киризлеева А. С. Теоретические аспекты инвестиционной деятельности коммерческих банков, проблемы инвестирования и пути их решения // Научный результат. Экономические исследования. 2016. Т. 1. №3. С. 67–78.
9. Malikova G. T. Tijorat banklarda investitsion faoliyatdagi muammolar tahlili // Экономика и социум. 2024. №2(117)-1.
10. Axmedov Sh. A. Tijorat banklari investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish orqali loyihaviy samaradorlikni oshirish strategiyalari // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 2025. №13.
11. Xikmatillayeva D. Sh. Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirish yo‘llari // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 2024. №10.
12. Begenau J., Piazzesi M., Schneider M. Banks’ Risk Exposures // Journal of Financial Economics. 2019. Vol. 132. Issue 2.
13. Adrian T., Shin H. S. Liquidity and Leverage // Journal of Financial Intermediation. 2010. Vol. 19. Issue 3.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100